



STUDY OF THE HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF INTERETHNIC RELATIONS

Khosiyat Ravshanovna Nafiddinova

Associate Professor of Bukhara State University

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

x.r.nafiddinova@buxdu.uz

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: nation, interethnic relations, tolerance, tolerance, ethnos, ethnic commonality, interethnic harmony, territorial characteristics, cultural goodwill.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article provides information on the history of the formation and development of interethnic relations, the relevance and necessity of this topic for our lives today, as well as the level of its study. The essence of interethnic relations and tolerance, tolerance, concepts are discussed. In addition, opinions are expressed about the specific territorial characteristics of different nations.

MILLATLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXINING O'RGANILISHI

Xosiyat Ravshanovna Nafiddinova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro davlat universiteti dotsenti

x.r.nafiddinova@buxdu.uz

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: millat, millatlararo munosabatlar, tolerantlik, bag'rikenglik, etnos, etnik mushtaraklik, millatlararo totuvlik, hududiy xususiyatlar, madaniy xayrixohlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatlararo munosabatlar shakllanishi va rivojlanishi tarixi va bu mavzuning bugungi hayotimiz uchun dolzarbligi va zarurati, shuningdek o'rganilishi darajasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik, tolerantlik, tushunchalarning mohiyatiga to'xtalib o'tilgan. Qolaversa, turli millatlarning o'ziga

xos hududiy xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖЭТНИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Хосият Рашидановна Нафиддинова

Доктор философии в области исторических наук (PhD)

Доцент Бухарского государственного университета

x.r.nafiddinova@buxdu.uz

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	нация, межнациональные отношения, толерантность, этнос, этническая общность, межнациональная гармония, территориальные особенности, культурная доброжелательность.	Аннотация: В данной статье представлена информация об истории формирования и развития межнациональных отношений, актуальности и необходимости этой темы для нашей современной жизни, а также об уровне ее изучения. Рассматриваются сущность межнациональных отношений и толерантности, толерантность, концепции. Кроме того, высказываются мнения о специфических территориальных особенностях различных народов.
------------------------	--	---

Kirish. Xalqimiz hayotida millatlararo bag'rikenglik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Milliy, madaniy xayrixohlik o'zbek xalqining o'ziga xos fazilatiga aylangan. Bugungi kunda ko'pmillatli mamlakat hisoblangan O'zbekistonda o'zbeklar bilan birga 130 dan ziyod millat va elat vakillari ahil va inoq yashaydi va bu muborak zaminni o'z Vatani deb biladi. Buxoro vohasi qadimdan etnik va diniy bag'rikenglikning o'ziga xos hududi bo'lgan. Hozirgi vaqtda vohada turli etnik guruhlar va diniy jamoalar tinch-totuvlikda yashab kelmoqdalar. Haqiqatan ham, turli etnoslar va dinlarga mansub odamlar o'rtasidagi aloqa, munosabat, muloqot, bahs-munozara va muzokaralar muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratish zarur. Chunki millatlararo totuvlik va birdamlikka erishishning asosiy yo'li milliy va umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini rivojlantirish va mustahkamlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston va Buxoro vohasida yashayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini tarixiy-etnografik tahlil etishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik, tolerantlik, ularning shakllanish tarixi va hududiy xususiyatlari haqida fikr bildirishdan oldin avvalo ushbu mavzuga oid tushunchalarning mohiyatiga biroz to'xtalib o'tsak.

Millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, siyosiy va ijtimoiy maqsadlari bir biriga zid kelmaydigan, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib toptan ijtimoiy birlik shakli. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir. R.R.Nazarov millat deganda, mushtaraklikning ikki turini: bir tomondan, ijtimoiy sinf, professional guruh qatlami va shu kabilarning, boshqa tomondan, (etnik) qabila, elat, etnik guruhning uyg'unligi, ya'ni etnoijtimoiy mushtaraklikni tushunadi [1,13]. M. Oripov esa aksincha, millat etnos ham, etnik mushtaraklik ham emas, balki odamlarning tarixiy qaror topgan mushtarakligining o'ziga xos qotishmasi bo'lib, uning asosini davlatchilik tashkil etadi, deb hisoblaydi [2,5].

Tolerantlik – o'zbek tili atamasi bilan izohlasak millatimiz har bir insonga xos bag'rikenglik odamlarga himmat va muruvvatli, mehr oqibatli, samimiy, g'amxo'r va e'tiborli, sabr-qanoatli, kechirimli bo'lishini anglatadi [3,370]. Arab tilida (tasam'ul) "kechirish, muloyimlik, rahmdillik, sabr toqatlilik" deb ta'rif beriladi. Yuqoridagi ta'riflarni umumiy bir tizimga keltirsak, tolerantlik – lotincha "tolerantia" sabr – toqat, jamiyatdagi turfa madaniyatlilik, turli fikrlilikning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to'g'ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabatdir.

XXI asr boshlariga kelib "bag'rikenglik" tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko'tarildi. Dastlabki vaqtlarda u murosai-madora ma'nosida e'tirof etilgan bo'lsa, bora-bora uning ma'no-mohiyati kengaya bordi. Hozirgi vaqtga kelib, ijtimoiy fanlarning sohalari - etika, tarix, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda bag'rikenglik tushunchasi bevosita foydalanilmoqda. Bag'rikenglik shunchaki tushuncha emas, balki jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida muayyan ijtimoiy-ma'naviy hodisa, xilma-xil tur, shakl va talqinlardagi noyob holat sifatida tushunilmoqda [4,4]. Bag'rikenglik tamoyilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, hodisalarning tafovutlari, ziddiyatlari, farqlari haqida so'z borganda unga ehtiyoj paydo bo'ladi. Umuman olganda bag'rikenglik sabrlik yoki befarqlik deb emas, turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo'ladigan xilma-xilliklarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degan ma'noda talqin etiladigan bo'lib qoldi.

Millatlararo totuvlik deganda, ko'p millatlar yashayotgan mamlakat hududidagi turli millat va elat vakillarining hamjihatlik va o'zaro hamkorlikda yashashlari, ularning ongi va qalbida yagona Vatan tuyg'ularining mustahkamligi, uning istiqboli yo'lida sidqidildan mehnat qilish va fidoyilik ko'rsatish ruhiyatining amal qilishini tushunish mumkin.

Millatlararo munosabatlar - mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir[5].

Umiman olganda ushbu mavzuga doir barcha tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) Sovet hokimiyatining so'nggi yillarida millatlararo munosabatlar tarixiga oid chop etilgan tadqiqotlar;

2) Mustaqillik yillarida tarixchi, faylasuf va pedagog olimlarning mavzuga doir nashr qilgan ishlari;

3) Xorij olimlari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar.

Birinchi guruhga asosan bir guruh olimlar tomonidan olib borilgan aynan millatlararo munosabatlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini kiritish maqsadga muvofiq. Bu izlanishlarda millatlararo munosabatlarga o'sha davrdagi hukmron kommunistik mafkura ruhida baho berilgan bo'lsa-da ularda millatlarning teng huquqliligi bayon qilingan, biroq sovet hukumatining milliy siyosat borasida olib borgan siyosatiga xolisona baho berilmasdan milliy siyosat to'la va uzil-kesil hal etilgan degan soxta, haqiqatdan ancha uzoq bo'lgan xulosani asoslashga harakat qilingan.

S. Raximov, Yu.V. Bromley, A.A.Aimbetov va A.E. Jarnikovlar[6,243] ning tadqiqotlarida sobiq Ittifoqda hukmron partiya – KPSS tomonidan o'tkazib kelingan milliy siyosatga ob'ektiv baho berilmagan, biroq aynan shu davrda milliy siyosat va millatlararo munosabatlar qo'pol ravishda buzilgan hamda markazning mazkur milliy amaliyoti borasidagi masalani ijobiy hal qilingan deya, noxolis fikrlarni asoslashga harakat qilingan.

Qolaversa, bu davrda voha aholisining moddiy madaniyati borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Masalan, L. Rempelning "O'rta Osiyo xalqlari turar-joylari arxitekturasi" maqolasida O'rta Osiyo xalqlari uy-joylari bilan birga Samarqand, Xiva, Toshkent va Buxoro shaharlari an'anaviy uylari haqida ham fikr gap boradi[7,32-40]. Bundan tashqari, muallifning 1982-yilda chop etilgan asarida ham Buxoroning bozorlari, guzarlari, eski mahallari, xonaqoh va uy-joylar haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan. M.S.Andreyev va O.D.Chexovichning "Buxoro arki" asarida Arki oliydagi binolar qatorida, u yerda joylashgan turar-joylar haqidagi ma'lumotlar ham yoritib o'tilgan[8,217].

B. N. Zasipkinning 1948-yil Moskvada chop etilgan “O’rta Osiyo arxitekturasi” nomli asarida ham O’rta Osiyo xalqlari arxitekturasi, masjid va madrasalar bilan bir qatorda, Buxoro vohasidagi turar-joylar va ularning turli millatlarda biroz farqlanishi to’g’risida ham fikr yuritilgan.

Ikkinchi guruhni bevosita istiqloq yillarida tarixchi, faylasuf va pedagog olimlar tomonidan mavzuga doir nashr qilingan ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Tarixchi-olimlardan Sh.M.Abdullaev, D.B.Bobojonova, O.R.Musayev, X.E.Yunusova, E.F.Ibragimov, M.I.Xashimov, L.M.Sabirova, Z.U.Yusupov, O.O.Bozorov, B.B.Xaynazarov, S.N.Yusupova va Sh.Z.Sharipovlar[9,56] ilmiy tadqiqotlarida O’zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, diniy bag’rikenglikning jamiyat hayotidagi o’rni, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va asosiy tamoyillari tadqiqiga bag’ishlangan.

Mustaqillik davrida tarixchi-olimlar tomonidan nashr qilingan qator yirik fundamental tadqiqotlarda[10,560] respublikada millatlararo totuvlik munosabatlarining o’rnatilishi, uning barqarorlashuvi, milliy madaniyat markazlari sonining keskin ravishda ortib borishi hamda tolerantlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari atroflicha tahlil qilingan.

Faylasuf tadqiqotchilardan K.J.Mira’zamov, Z.M.Husnidinov, A.S.Achildiev, X.N.Maxmanova, O.R.Musaev, Q.P.Qabulov, N.A.Nazarovlar izlanishlaridan O’zbekistondagi milliy madaniyat markazlari faoliyati, polietnik (ko’p millatli) davlatlarda ko’pmillatlilikning demokratik jamiyat qurishdagi o’rni va ahamiyati, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari hamda millatlararo munosabatlarning asta-sekin takomillashuvi jarayonlari, Markaziy Osiyo millatlararo munosabatlaridagi o’ziga xoslik, shuningdek, millat-etnos va polietnik sotsium masalalarining nazariy-metodologik jihatlari, millatlararo munosabatlar paradigmasida milliy hamda etnoijtimoiy jarayonlarga oid ilmiy-falsafiy hamda ijtimoiy-siyosiy kontseptsiyalar mohiyati tadqiq etilgan[11,139]. O’zbekistonda Zarafshon vohasining Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar bo’yicha maxsus tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Biroq ushbu masalaning ayrim jihatlari o’id bir necha tadqiqot ishlari bajarilgan. Shundan kelib chiqqan holda, mavzuning o’rganilganlik darajasini ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruh fanlararo yondashuv asosida O’zbekistonda mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlarning turli jihatlari o’id bajarilgan tadqiqotlarni qamrab oladi. Jumladan, bu borada K.Normatov, F.Is’hoqov, R.Nurillilar[12,135], K.Mira’zamov[13,143], A.Mo‘minov[14,123], O.Ata-Mirzayev, V.Gentshke, R.Murtazayeva[15,173], D.Bobojonova[16,160], O.Musayev[17,163], X.Yunusova[17,116],

Z.Yusupov[18,153], R.Shigabdinov, R.Nazarov[19,144], G'.Mirzayevlar[20,50] tomonidan amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin.

Uchinchi guruhga xorij olimlari tomonidan e'lon qilingan bevosita millatlararo munosabatlar, millatlararo ziddiyatlar tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kiradi. Amerikalik izlanuvchi Nik Megoran O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara hududlari, bu ikki xalq o'rtasidagi do'stlik aloqalar tarixi, Farg'ona vodiysi millatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar rivoji, Markaziy Osiyoda mustaqil milliy davlatlar qurish jarayonlarini atroflicha o'rganishga muvaffaq bo'ldi[21, 622-640].

Rossiyalik tarixchi Sergey Abashin O'rta Osiyoda o'rnatilgan mustamlakachilik siyosati va amalga oshirilgan sovet islohotlari etnik bo'linish mantig'ida madaniy xilma-xillikni qayta ko'rib chiqishga olib keldi[22], deya baho berdi.

Shuningdek, A.I. Gizinburg, Q.I. Qoblandin, G.M. Mendikulova, Frederick Starr, Svante E. Cornell, Jacob Zenn, Richard Veitzlarning[23,55] tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar, ularning huquqiy asoslari, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli etnoslar va xalqlarning turmush-tarzi, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning madaniy aloqlari tarixi ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda millatlararo munosabatlar shakllanish tarixi va uning hududlarga xos xususiyatlari tarixini o'rganish bo'yicha anchagina ishlar qilingan. Ammo baribir ham ko'rishimiz mumkinki, bu borada ayniqsa Buxoro vohasi bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar va tadqiqotlar ham anchagina. Ayniqsa, viloyatda yashovchi ammo biroz kam o'rganilgan millatlarning o'ziga xos xususiyatlari milliy madaniy markazlar faoliyati orqali o'rganilsa yanada maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров Р.Р. Национальные отношения как объект социально-политического управления: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – С.13.
2. Арипов М. Нация – объединение не этническое, а государственное // Азия (международная газета).– 1994. – №31. – С.5.
3. “Sotsiologik ensiklopedik lug'at”, M., 1998, 370 b.
4. Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. - Toshkent: «Go To Print», 2020. – B. 4.
5. <https://lex.uz/docs/-4597662>.
6. Рахимов С. СССРда миллатлар ва миллий муносабатлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 1987.–243 б.; Ўша муаллиф. СССРда миллатлар ва миллатлараро

таракқиётининг объектив йўналиши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1988.–342 б.; Бромлей Ю.В. Этносоциальные процессы: теория, история и современность. –Москва: Наука, 1987.–333 с.; Аимбетов А.А. Интернационализация социалистического образа жизни.–Алма-Ата: Наука, 1987. –239 с.; Жарников А.Е. Межнациональные проблемы в СССР: причины, поиски решений. - Москва: Знание, 1990.–64 с.

7. Ремпель Л. Архитектура народного жилища в Средней Азии// Архитектура СССР – Москва, 1937. С 32-40.
8. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк Бухары. Душанбе: "Дониш", 1972. – С 217.
9. Абдуллаев Ш.М. Этносоциальные и этнополитические процессы в Ферганской долине (Основные проблемы, тенденции и противоречия, 70-80-е годы XX в.): Дисс. ... докт.ист.наук.-Ташкент, 1994.-340 с; Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатлари (70-80 йилларнинг ўрталари): Тарих фан.докт. ... дисс.-Тошкент, 1998. –294 б; Мусаев О.Р. Ўзбекистон Республикасида миллатлараро муносабатлар (1991-1997 йиллар): Тарих фан. номз. ... дисс.-Тошкент, 2000. –152 б; Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX асрнинг 80-йиллари мисолида): Тарих фан.докт. ... дисс.-Тошкент, 2009. –296 б; Ибрагимов Э.Ф. Ўзбекистонда христиан конфессиялари фаолияти ва уларнинг диний бағрикенглик анъаналари шаклланишида ўрни: Тарих фан.номз. ... дисс.-Тошкент, 2009. – 131 б; Хашимов М.И. ЮНЕСКО фаолиятида диний бағрикенглик тамойиллари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): Тарих фан.номз. ... дисс.-Тошкент, 2009. –152 б; Сабинова Л.М. Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг ривожланиши ва уларнинг миллатлараро муносабатларни мустаҳкамлашдаги ўрни (1991-2005 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс.-Тошкент, 2010. –151 б; Юсупов З.У. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналмилаллик (1970-2000 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс.-Тошкент, 2011.–154 б; Бозоров О.О. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистондаги миллатлараро муносабатлар тарихи (Фарғона ғожиаси мисолида): Тарих фан.фал.док (PhD). ...дисс.-Тошкент, 2019. – 153 б.; Хайназаров Б.Б. Ўзбекистон уйғурлари диаспораси тарихи (1925-2012 йй.): Тарих фан.фал.док (PhD). ...дисс.автореф.–Тошкент, 2018.–49 б.; Юсупова С.Н. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг миллатлараро муносабатларга таъсири (1991-2016 йиллар, Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари мисолида): Тарих фан.фал.док (PhD). ...дисс.автореф.–Андижон, 2019. –54 б.; Sharipov Sh.Z. O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati tarixi (Zarafshon vohasi viloyatlari misolida, 1990-2020 yillar): Tarix fan.fal.dok (PhD). ...diss.avtoref.–Samarqand, 2023.–56 b.

10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 560 б; Ўзбекистон тарихи / Р.Х.Муртазаева умумий таҳрири остида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 675 б; Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. – 520 b; Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиқов М. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 471 б.; Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 328 b.; O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Uchinchi kitob / N. Jo‘raev, T. Fayzullayev; – To‘ldirilgan, qayta nashr. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 664 b; Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 576 b.; Муртазаева Р.Х., Одилов А.А., Ерметов А.А., Саипова К.Д. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2020. – 766 б.

11. Миръзамов К.Ж. Миллий-маданий манфаатлар ва миллий маданиятларнинг ривожланиши: Фал.фан. номз....дисс.-Тошкент, 1995. – 124 б.; Хуснидинов З.М. Ўзбекистонда диний бағрикенгликни мустаҳкамлаш омиллари ва муаммолари: Фал.фан. номз. ...дисс.-Тошкент, 2000. – 139 б.; Ачилдиев А.С. Миллий истиқлол ғояси-миллатлараро муносабатларни такомиллаштириш омили: Фал.фан. док. ...дисс.-Тошкент, 2004. – 233 б.; Махманова Х.Н. Кўпмиллатлиликнинг Ўзбекистонда демократик жамият қуришдаги ўрни: Фал. фан. номз....дисс.-Тошкент, 2005. – 106 б.; Мусаев О.Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари: Фал.фан. док (DSc). ...дисс.-Тошкент, 2017. – 234 б.; Қабулов Қ.П. Миллий манфаатларни уйғунлаштиришда толерантлик: Фалсафа фан.фал.док (PhD). ...дисс.-Урганч, 2018. – 134 б.; Назаров Н.А. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар. – Тошкент: Global books, 2018. – 256 б.; Ўша муаллиф. Марказий Осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи: Фал.фан. док (DSc). ...дисс.-Тошкент, 2019. – 238 б.

12. Норматов К., Исҳоқов Ф., Нуриллин Р. Миллатлараро муносабатлар маданияти ва байналминал дунёқараш. – Тошкент: Ўзбекистон. 1993. 135 б.

13. Мираъзамов К. Миллий-маданий манфаатлар ва миллий маданиятларнинг ривожланиши. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 1995. 143 б.

14. Муминов А. Миллатлараро муносабатлардаги муаммоларни ўрганишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан. 1996. 176 б; Ўша муаллиф: Миллий сиёсат ва маданий соҳадаги ўзгаришлар. – Тошкент: Академия. 2010. 123 б.

15. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. –Ташкент: Шарқ, 1998, 159 с; Ўша муаллифлар: Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. - Ташкент, 2004. 179 с; Бағрикенг Ўзбекистон диаспоралари тарихи (Бухоро яхудийлари, немис, поляк, корейс, грек, уйғур, Болтиқбўйи халқлари мисолида). 2-китоб. Жамоавий монография. Масъул муҳаррир. Р.Х. Муртазаева. –Тошкент: Турон-Иқбол. 2019. 173 б.
16. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. –Тошкент: Шарқ, 1999. 160 б.
17. Мусаев О. Ўзбекистон Республикасида миллатлараро муносабатлар (1991-1997 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент 2000. 163 б. Ўша муаллиф: Миллий сиёсат ва миллий-маданий марказлар // Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. –Тошкент: Шарқ, 2000. 147-162 б. Ўша муаллиф: Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ривож. – Тошкент: Истиқлол нури. 2016. 323 б: Ўша муаллиф: Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2017. 258 б.
18. Юнусова Х. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Зарқалам, 2005. 116 б.
19. Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналминаллик (1970-2000 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: 2011. 153 б.
20. Шигабдинов Р. Башкирская диаспора Узбекистана// VII Конгресс этнографов и антропологов России. - Саранск: ИЭА РАН. НИИИГН, 2007 512 с; Назаров Р. Полиэтнический социум Узбекистана (историко социологический аспект). Ташкент: Ижтимоий фикр, 2013. – 144 с; Ўша муаллиф: Этнополитические процессы и межэтнические отношения в Республике Узбекистан (конец XX – начало XXI вв.). Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2015. – 244 с. Мирзаев Ғ. Ўзбекистон Республикаси ва Туркменистон ҳамкорлик алоқаларининг шаклланиши ва ривожланиш тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати Тошкент-2018 й. -50 б.
21. Nick Megoran. For ethnography in political geography: Experiencing and re-imagining Ferghana Valley boundary closures // Political Geography.-UK, Volume 25, Issue 6, August 2006. PP.622-640.; Ўша муаллиф.Nationalism in Central Asia: A Biography of the

Uzbekistan-Kyrgyzstan Boundary: University of Pittsburgh Press. -USA, Pittsburgh, 2017. -366 p.

22. Sergey Abashin. Ethnic conflict in Modern Central Asia // The Oxford Research Encyclopedia of Asian History. 26 September 2018.

23. Гинзбург А.И. Узбекистан. Этнополитическая панорама: Очерки. Документы. Материалы. М.: ИЭА РАН, 1995. Қобландин Қ. И., Меңдикулова Г. М. Өзбекстандағы қазақтардың тарихы және бүгінгі дамуы. – Алматы : Дүниежүзі қазақтарының қауымдастығы, 2009. – 296 б., Frederick Starr, Svante Cornell. Uzbekistan's New Face. USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 248 p., Svante E. Cornell and Jacob Zenn. Religion and the Secular State in Uzbekistan. USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 45 p., Richard Weitz. Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership // USA. Washington DC: Rowman & Littlefield, 2018. – 55 p.